




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



REGIONAL PROBLEMS IN SOUTH ASIA

Jumagul U. Saidaliyeva

Master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: saydaliyevajumagul@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Kashmir problem, Durand Line, ethno-political problems, Aksai Chin, Arunachal Pradesh, Kingdom of Sikkim, CPEC.

Received: 11.05.23

Accepted: 13.05.23

Published: 15.05.23

Abstract: South Asia, which is home to almost a quarter of the world's population, has complex historical formations, regional diversity and controversial national borders. This article analyses the geostrategic location of the South Asian region and the causes and stages of development of the existing regional problems in it.

JANUBIY OSIYODAGI MINTAQAVIY MUAMMOLAR

Jumagul U. Saydaliyeva

Magistratura talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: saydaliyevajumagul@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Kashmir muammozi, Dyurand chizig'i, etno-siyosiy muammolar, Aksay Chin, Arunachal Pradesh, Sikkim qirolligi, CPEC.

Annotatsiya: Dunyo aholisining deyarli to'rtadan bir qismi yashaydigan Janubiy Osiyo murakkab tarixiy shakllanish, mintaqaviy xilma-xillik va bahsli milliy chegaralarga ega. Ushbu maqolada Janubiy Osiyo mintaqasining geosiyosiy joylashuvi va undagi mayjud mintaqaviy muammolar rivojlanish sabablari va bosqichlari o'rganilgan.

РЕГИОНАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ В ЮЖНОЙ АЗИИ

Джумагуль У. Сайдалиева

студент магистратуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: saydaliyevajumagul@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Проблема Кашмира, линия Дюрана, этнополитические проблемы, Аксай Чин, Аруначал-Прадеш, Королевство Сикким, CPEC.	Аннотация: Южная Азия, в которой проживает почти четверть населения земного шара, отличается сложными историческими образованиями, региональным разнообразием и противоречивыми национальными границами. В данной статье анализируется геостратегическое расположение региона Южной Азии, а также причины и этапы развития существующих в нем региональных проблем.
------------------------	--	--

KIRISH

Chegaralar sivilizatsiyalashgan dunyodagi deyarli har bir tashqi ishlar vazirligining asosiy tashvishidir. Bundan tashqari, ular urush yoki tinchlik, xalqlar uchun hayot yoki o'lim haqidagi zamонавиј masalalarni to'xtatib qo'ygan ustaraning chetidir.

Lord Kerzon, Oksford 1907.

Geosiyosiy tuzilma sifatida bir necha davlatlarni o'z ichiga oluvchi Janubiy Osiyo mintaqasida Hindiston va Pokiston asosiy aktorlar hisoblanadi va ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar ushbu mintaqaning xalqaro aloqalarini belgilab beruvchi omil sifatida ko'rildi. Janubiy Osiyo mamlakatlarining geosiyosiy holati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Faqatgina Hindiston mintaqaning boshqa barcha mamlakatlari bilan umumiyl quruqlik yoki dengiz chegarasiga ega. Hindiston hududning taxminan 74% ni tashkil qiladi, aholining 77%, yalpi milliy mahsulotning 83% dan ortig'i va shunga o'xshash vaziyat harbiy jihatdan ham mavjud. Bu mamlakatning mintaqadagi tabiiy ustunligi va mintaqalararo vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Pokistonning esa Janubiy Osiyo va O'rta Sharq chorrahasidagi geostrategik holati unga Islom mamlakatlarining harbiy va iqtisodiy salohiyatiga tayanishiga imkon beradi. Geosiyosiy voqelik mintaqadagi davlatlararo munosabatlar tizimi uchun katta rol o'ynaydi. Mintaqada uzoq yillar davom etgan mustamlakachilik tizimidan mustaqillikga erishgandan keyingi chegara bo'linishi, hozirgi kundagi bir qancha transchegaraviy kelishmovchiliklarni keltirib chiqargan.

ASOSIY QISM

Ushbu tadqiqotda tarixiy qiyosiy, event tahlil kabi voqealarga asoslangan siyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. G'arb, Pokiston, Hindiston, Xitoy va Rus olimlarining tadqiqot masalasi bo'yicha fikrlari teng tahlil qilindi. Mavzuni kengroq yoritish uchun yirik tahlil markazlari siyosatchilari va mutaxassislarining fikrlari batafsil o'rganildi. Maqolada dolzarb masalalarni chuqur tahlil qilish va ularning mumkin bo'lган yechimlari keltirilgan.

Mintaqada bir qator o'z yechimini topmagan muammolar mavjud.

- Kashmir muammosi;
- Dyurand chizig‘ini tan olish masalasi muammosi;
- Etno-siyosiy muammolar;
- Suv resurslaridan foydalanishdagi kelishmovchiliklar;

1947- yilda Hindistonning diniy printsipga ko‘ra bo‘linishi millionlab hindular va sikxlarning Hindistonga va musulmonlarning Pokistonga qonli ko‘chishi bilan birga bo‘ldi, shundan keyin hatto iqtisodiy aloqalar ham deyarli uzildi. Kashmir mojarosi nafaqat Janubiy Osiyoda, balki dunyoda ham eng uzoq davom etgan va hal qilinmagan mojarolardan biridir. Mutaxassislar buni Falastindagi Arab-Isroil mojarosi, Koreya inqirozi va postsoviet hududidagi misollardan tog‘li Qorabog‘, Ukrainadagi “rus bahori” va boshqalar bilan taqqoslashadi. Uning ajralib turadigan xususiyati uzoq davom etgan qarama-qarshilik va qonli to‘qnashuvlar bo‘lib, kamida million kishining o‘limiga sabab bo‘ldi. Natijada 18 millionga yaqin odam qo‘sni davlatlardan boshpana izlashga majbur bo‘ldi. Harbiy harakatlar boshlanganidan beri faqat dastlabki olti oy ichida 7 millionga yaqin musulmonlar Hindistonni tark etib, Pokiston hududiga o‘tdilar, deyarli besh million hind oqimi ularni kutib olishga harakat qildi. Bundan tashqari, kamida 500 ming kishi har ikki tomonning to‘qnashuvi qurbaniga aylandi.

Hududga egalik qilish masalasida Hindiston va Pokiston o‘rtasida 3 marotaba yirik urushlar bo‘lib o‘tti va Janubiy Osiyoning ikki yirik davlarlarining yadroviy quronishni bilan yakulandi. Biroq shunga qaramay Kashmir Hindiston, Pokiston va Xitoy o‘rtasida bahsli hududlardan biri bo‘lib kelmoqda. Bunga sabab hududning geosiyosiy joylashuvi va bu yerda har bir mamlakatning o‘z manfaatlari to‘qnashayotganidir.

Bugungi kunda Hindiston va Xitoy o‘rtasidagi ikki munozarali hudud: Aksay Chin va Arunachal Pradeshdir. Arunachal Pradesh Hindistonning uzoq sharqida, Aksay Chin esa Hindistonning shimoliy-g‘arbiga yaqin, Xitoy, Hindiston va Pokistonning tutashgan yerida joylashgan. Ma’lumki, 1960- yillardan beri Xitoy tomonidan Hindistonga tegishli Kashmir hududining (Aksay Chin rayoni) 38 000 kv.km qismini bosib olganligi tufayli Hindiston da’vo qilmoqda, o‘z navbatida Xitoy ham 90 000 kv.km maydondagi Hind shtati hisoblangan Arunachal Pradeshga bo‘lgan da’vosini bildirmoqda. Bu esa 1962- yilgi ikki o‘rtasidagi to‘qnashuvga olib kelgandi. Yana bir munozarali hudud bu Sikkim va Tibet qirolliklaridir. 1975- yilda Sikkim qirolligi Hindiston tomonidan egallab olingan edi, Xitoy esa hozirgacha bu hududni mustaqil davlat hisoblab keladi. 2003 yilda ikki davlat o‘rtasida o‘zaro hududiy tan olish sodir bo‘lgandi: Hindiston hukumati Tibetni Xitoyning daxlsiz bir qismi deb, Xitoy hukumati ham Sikkimni Hindistonning bir qismi sifatida tan olgan edi.

- Kashmirning hech bo‘lmaganda bir qismiga egalik qilish Pokiston uchun alohida ahamiyatga ega, chunki u Hindistonning Markaziy Osiyo mintaqasi va Afg‘onistonga to‘g‘ridan

to‘g‘ri kirishini to‘xtatadi va Pokiston uning ittifoqchisi bo‘lgan Xitoy bilan umumiy chegaraga ega bo‘ladi.

- Hindiston Xitoyning Aksay Chindagi pozitsiyasini o‘z suvereniteti uchun tahdid deb biladi, chunki Aksay Chin Dehliga yaqinroq balandlikda joylashgan. Xitoy va Hindiston o‘rtasidagi har qanday to‘qnashuv paytida Xitoy ikki soatdan kamroq vaqt ichida o‘z armiyasini Hindistonning yuragiga chuqur kiritishi mumkin. Aksay Chin Xitoyning avtonom sun’iy yo‘ldoshi bo‘lib, Hindiston va butun Markaziy Osiyo operatsiyalarini kuzatib boradi.

- Xitoy uchun CPEC global va mintaqaviy ustunlikka erishishga qaratilgan ulug‘vor “Bir kamar va yo‘l” tashabbusining bir qismidir. Pekin uchun CPEC mintaqaviy bog‘lovchi bo‘lib, unga mintaqaning iqtisodiyotida investitsiyalari orqali strategik va harbiy kuch bilan ta‘minlaydi.

- Hindiston Xitoy va Pokistonning ning yaqinda qabul qilingan qaroridan noroziligini bildirdi, chunki CPEC Pokiston tomonidan bosib olingan Kashmir orqali o‘tadi va Nyu-Dehli bu harakatni “Hindiston suvereniteti va hududiy yaxlitligi” ni buzish deb biladi.

Janubiy Osiyo mintaqasidagi mintaqaviy xavfsizlikka tahdid qilayotgan muammolardan biri Dyurand chizig‘i muammosidir. Dyurand chizig‘i 1893- yilda Hindiston va Afg‘oniston amirligi o‘rtasidagi xalqaro chegara sifatida Hindiston davlat xizmatining britaniyalik diplomati Mortimer Dyurand va Afg‘oniston amiri Abdurahmon tomonidan tegishli ta’sir doiralari chegarasini belgilash uchun tashkil etilgan. Dyurand chizig‘i Pushtun qabilaviy hududlarini kesib o‘tadi va janubda Balujiston mintaqasi orqali o‘tadi. Bu chiziq har ikki tomonida yashaydigan etnik pushtunlarni, shuningdek, balujlarni va boshqa etnik guruhlarni siyosiy jihatdan ajratadi. U Afg‘onistonning shimoli-sharqiy va janubiy viloyatlaridan Shimoliy va g‘arbiy Pokistonning Haybar-Paxtunxva , Balujiston va Gilgit-Baltistonini ajratib turadi. Geosiyosiy va geostrategik nuqtai nazardan u dunyodagi eng xavfli chegaralardan biri sifatida tavsiflangan. Geosiyosiy va geostrategik tahlilchilar bu yerni qon to‘kilishi va urushlarning uzoq tarixi bilan bo‘ylgan dunyodagi eng xavfli nuqtalardan biri sifatida tavsiflaydi. Bundan tashqari, Durand chizig‘ining kelib chiqishi hali ham chegara mojarosining eng kam o‘rganilgan jihatlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Hamid Xadining ta’kidlashicha, Karzay rasmiy ravishda “Erkin Pashtuniston” ni yaratishni qo‘llab-quvvatlashga chaqirmagan, shuning uchun pashtunlar Dyurand liniyasi to‘g‘risidagi shartnomani Pokiston va xalqaro hamjamiyat bilan qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini qo‘ldan boy berishgan. Bu keyinchalik ushbu masaladan terroristik bazalarni ushbu hududda joylashtirish uchun qulay platforma sifatida foydalanishga imkon berdi.

• Pokiston uchun Durand chizig‘ini saqlab qolish juda muhim, chunki aks holda uning suveren hududining 60% dan ortig‘i shubha ostiga olinadi. Pokiston Afg‘oniston Durand

chizig'i shartnomasini tan olishi va ikki mamlakat o'rtasidagi 2640 kilometrlik chegarani hurmat qilishga rozilik berishi kerakligi to'g'risida qat'iy pozitsiyani egallaydi.

- Durand chizig'i kelishuvi hech qachon har ikki tomonning qonun chiqaruvchi organlari tomonidan radifikatsiya qilinmagan va shuning uchun uning qonuniy asosga ega emasligi ta'kidlanadi.

- Iqtisodiy jihatdan Balujistonning Pokiston hududiga qarashliligi Qobulni Arab dengiziga tarixiy kirish huquqidan mahrum qildi.

Munozarali chegarada Pokiston va Afg'oniston xavfsizlik xodimlari o'rtasidagi davriy to'qnashuvlar va keskinliklar allaqachon yomonlashib borayotgan ikki tomonlama munosabatlarni keskinlashtiradi. 2017-yil may oyi boshida Chaman chegara posti yaqinida sodir bo'lган shiddatli to'qnashuvlarda kamida 13 kishi halok bo'lган, 80 dan ortiq kishi yaralangan, ularning aksariyati Pokistonliklardir. Pokiston xavfsizlik tuzilmasi ISIning Tolibonning yetakchiga aylangan kuch vositachisi sifatida chiqishi uchun moliyaviy, harbiy va diplomatik imkoniyat yaratish orqali Afg'onistonning ichki ishlarini o'z manfaati yo'lida qanday boshqarishi mumkinligini ko'rsata olgan bo'lsada, Pokiston bu yutuqni Dyurand chizig'i uchun mustahkam qonuniylikka aylantira olmadi. Pokistonning bu masalaga nisbatan sezgirligini 1971-yildagi ozodlik urushida hozirgi Bangladesh hududini bengal millatchilariga boy berishning og'riqli tajribasi bilan ham tushunish mumkin. Pokistonning afg'on va hind tahdidlarining o'zaro bog'liqligi va Afg'onistonning o'zi yoki Hindiston ko'magi bilan Pokiston davlatiga putur etkazish qobiliyatiga qat'iy ishonchi Pokiston harbiy nutqida doimiy mavzu bo'lib kelgan. Pashtun jamoalari ichidagi har qanday millatchilik yoki bo'linish tendensiyasi Pokistonning hududiy yaxlitligiga, ehtimol, uning milliy omon qolishiga qarshi hisoblanadi. Afg'oniston Dyurand chizig'ini Pokiston bilan chegara sifatida tan olmasligini ta'kidlasa-da, Pokistonning pashtunliklar ko'p bo'lган hududlari maqomi qanday bo'lishi kerakligi borasida haligacha o'z pozitsiyasini aniq bildirmagan. Pushtun masalasi Hamid Karzay (2004-2014 yillar) pushtun hokimiyati davrida dolzarb bo'lman. U Dyurand chizig'ini "ikki aka-uka o'rtasida devor qurgan nafrat chizig'i"deb atagan, shu bilan birga u Pokiston bilan do'stona munosabatlarni o'rnatish tarafdoi bo'lган, ammo u hech qachon chiziqni qonuniy deb tan olmasligini ta'kidlagan.

Etnik nuqtai nazar - davlatlar etnik kelib chiqishiga qarab tuzilishi kerak degan afg'on mantig'i amalda qo'llanilsa, Afg'onistonning o'zi ham davlat sifatida mavjud bo'lmay qoladi. Afg'on mantig'iga ko'ra, Afg'onistonning tojiklar, o'zbeklar va turkmanlarning ham mos ravishda Tojikiston, O'zbekiston va Turkmanistondagi o'z millatiga qo'shilishiga ruxsat berilishi kerak. Ikkinchidan, pokistonlik pashtunlar soni afg'on paxtunlaridan kamida ikki baravar ko'p. Shuning uchun agar pakhtunlar birlashib, yagona davlatda birlashsa, u davlat

Afg'oniston emas, Pokiston bo'lar edi. Hozirgi vaqtda Pokiston ham, Afg'oniston ham etnik va diniy jihatdan to'liq integratsiyalashgan davlatlar emasligini ta'kidlash kerak. Shu nuqtai nazardan, Dyurand chizig'ining ochiq chegarasi globallashuv istiqboliga aylanishi mumkin, bu esa gullab-yashnayotgan savdo, taraqqiyot va harakat erkinligiga olib keladi. Ko'proq siyosiy vaziyatdan chiqish yo'li davlatlar o'rtasidagi adovatni davom ettirish emas, balki hamkorlikni rivojlantirish uchun innovatsion strategiya hisoblanadi.

XULOSA

Janubiy Osiyo geosiyosiy mintaqasi sifatida shakllangach, uzoq yillik mustamlakchilik siyosati sabab bir qancha mintaqaviy va transchegaraviy muammolarga ega bahsli hududlardan biriga aylanib qoldi. Mintaqada mavjud Kashmir va Dyurand chizig'i muammolari bir- biriga paralleligi va etnik qutblanishni vujudga keltirgan etno-siyosiy vaziyatlar bilan bog'liq ekanligi bilan harakterlanadi. Uzoq davom etgan mojaroli vaziyatdan chiqish yo'llari mavjudligiga qaramay, milliy-etnik omil ham mintaqaga yirik tashqi kuchlar ta'siri kabi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Wagner C. Security Cooperation in South Asia: Overview, Reasons, Prospects // SWP Research Paper. –Berlin. – 2014. –P.9-11.
2. СТРАНЫ И РЕГИОНЫ МИРА В МИРОВОЙ ПОЛИТИКЕ // «Международные отношения» и «Зарубежное регионоведение» Aspect press, 2019.
3. Сагайдак Е.А. Кашмирский кризис как отражение проблемы замораживания конфликтов в Южной Азии// Армия и общество, 2014.
4. Шаумян Т. Индийско-китайская граница: перспективы урегулирования проблемы . //Азия и Африка сегодня, –2001. –№ 9. –С.27-32
5. Дюшебаев А. Конфликты и соперничество между Китаем и Индией. // <http://www.eastime.ru/analytic/3/8/851.html> - 12.06.2013.
6. Hussain Nadim , 5 reasons why Kashmir matters .February 11, 2022.thediplomat.com
7. Uradnik, Kathleen (2011). Battleground: Government and Politics, Volume 1. ABC-CLIO. p. 18. ISBN 9780313343131. Archived from the original on 16 August 2021. Retrieved 31 August 2020.
8. M.D.Hamid Hadi , Afghanistan experience : the history of events involving politics, religion and terrorism, Author house // 03.24.2016 -646 p.
9. Vinay Kaura (june 27, 2017) The Durand line:A British legacy plaguing Afghani-Pakistani relations //retrieved from <https://www.mei.edu/publications/durand-line-british-legacy-plaguing-afghan-pakistani-relations>

10. Arwin Rahi (February 11, 2022) The Durand Line: Separating myth from reality Express Tribune//retrieved <https://tribune.com.pk/>

11. Arwin Rahi (February 11, 2022) The Durand Line: Separating myth from reality Express Tribune//retrieved <https://tribune.com.pk>